



## AQL VA STRATEGIYA O‘YINI SHAXMAT

*Pardabayeva M.S.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi*

**Tayanch so‘zlar:** Shaxmat o‘yini, qoidalari, figuralari, shax va mat, shaxmat qaydnomasi, shaxmat o‘ynashning foydalari.

**Ключевые слова:** игра в шахматы, правила, фигуры, шахматы и мат, шахматные правила, преимущества игры в шахматы.

**Key words:** game of chess, rules, pieces, chess and checkmate, chess rules, advantages of playing chess.

Shaxmat - bu ikki o‘yinchi o‘rtasidagi strategik stol o‘yini bo‘lib, o‘yin taxtasida 64 katakka bo‘lingan 8x8 o‘lchamdagi maydonda o‘ynaladi. Har bir o‘yinchi 16 ta figura bilan boshlaydi: 1 ta shoh, 1 ta vazir, 2 ta rux, 2 ta fil, 2 ta ot va 8 ta piyoda. O‘yinning asosiy maqsadi raqibning shohini shax va mat qilib, yutishdir.

Shaxmat sport turini ommalashtirish va rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha qarorlari qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgustdagi “Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”PQ-347-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PQ-150-son qarori, “2026 yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgustdagi “Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”PQ-347-sonli qarorida 30-iyun — O‘zbekiston Respublikasi yoshlari



kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta‘minlash, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional shaxmatga jalb qilish, nufuzli xalqaro shaxmat musobaqalarida sovrinli o‘rinlarni egallash, jahon standartlariga mos keladigan shaxmat infratuzilmasini kengaytirish, shuningdek, Shaxmatni 2025-yilgacha rivojlantirish davlat dasturini izchil amalga oshirish maqsadida bir qancha vazifalar yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PQ-150-son qaroriga muvofiq, 2024-yil 1-yanvardan boshlab “Shaxmat stipendiyasi” ta‘sis etildi.

Mamlakatimizda ilk bor o‘tkaziladigan Butunjahon shaxmat olimpiadasini yuqori saviyada tashkil etishga puxta tayyorgarlik ko‘rish, yangi avlod iste‘dodli yosh shaxmatchilarni tayyorlash va jahon shaxmat maydoniga olib chiqish, shaxmatni aholi o‘rtasida yanada ommalashtirish maqsadida Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi Samarqand shahrida o‘tkaziladi. 2024 yildan boshlab har yili professional shaxmat klublari o‘rtasida “O‘zbekiston birinchiligi” musobaqalari o‘tkazib boriladi.

“Maktab ligasi”, “Akademik litsey ligasi”, “Professional ta‘lim muassasalari ligasi” va “Talabalar ligasi” musobaqalarida g‘olib bo‘lgan o‘quvchi-yoshlar va talabalar yil davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida “Shaxmat stipendiyasi” bilan rag‘batlantiriladi.

Buning natijasida O‘zbekistonlik shaxmatchilarning so‘nggi bir yil davomida xalqaro arenalardagi sensatsion g‘alabalari ortidan O‘zbekiston–2022-yilning eng yaxshi shaxmat mamlakati deb e‘tirof etildi va eng yaxshi shaxmat mamlakatiga topshiriladigan "Tour D‘or" – "Oltin minora" sovrini O‘zbekistonga topshirildi. Sovrinni O‘zbekiston shaxmat federatsiyasiga frantsiyalik mashhur grossmeyster Bashar Kuvatli topshirdi.

Xalqaro shaxmat federatsiyasi – FIDE tomonidan tuzilgan jahon shaxmat reytingida O‘zbekiston ilk bor kuchli yigirmatalikka kirishga muvaffaq bo‘ldi. 2022-yil iyul oyidagi reytingga ko‘ra, O‘zbekiston shaxmat bo‘yicha jahon reytingida 19-o‘rinni egalladi.

2022-yil Hindistonning Chennai shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon shaxmat olimpiadasida O‘zbekiston erkaklar terma jamoasi Niderlandiya jamoasi ustidan zafar qozonib, olamshumil g‘alaba – “Butunjahon shaxmat olimpiadasi chempioni” bo‘ldi. Bu tarixdagi birinchi chempionlik hisoblanadi.

“Fantastik beshlik” yoxud “Oltin avlod” chempionlari: Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yakubboyev, Javohir Sindarov, Jahongir Vahidov va Shamsiddin Vohidovlardir.

Shaxmatning foydali taraflari.



Shaxmat dunyo bo‘ylab millionlab odamlar tomonidan o‘ynaladi va ko‘p jihatdan foydali hisoblanadi. Bu o‘yin nafaqat zavq va ko‘ngilochar maqsadlarda, balki inson aqli va qobiliyatlarini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Quyida shaxmatning bir nechta muhim foydali taraflari keltirilgan.

Yuqoridagi qarorlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universitetida ham talaba yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va sportni ommalashtirish maqsadida 2023-yilning 15- sentabrda Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 01-206 sonli buyrug‘iga asosan sport seksiyalari tarkida shaxmat seksiyasi tashkil etildi. Shuningdek shu yilning 10-noyabrida universitetda “shaxmatklubi” tashkil etildi va o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Bugungi kunda shaxmat seksiyasi va klubi 100 dan ortiq talabalarni qamrab olgan.

Shuningdek jismoniy madaniyat fakulteti jismoniy madaniyat ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasida O‘quvchi yoshlar bilan shashka-shaxmat darslarini o‘tkazish metodikasi fani kiritilgan. Ushbu fanga 120-soat vaqt ajratilgan bo‘lib bundan, ma‘ruza 6-soat, amaliy mashg‘ulot 48-soat, seminar 6-soat, mustaqil ta‘lim 60-soat. Jismoniy madaniyat fakulteti talabalariga shaxmat darsidan yetuk mutaxassis o‘qituvchilar tahsil berishadi. Bulardan Yusupbayeva .A hamda Mamatqulov.R ustozlar o‘z bilimlarini shaxmat xonasida amaliy hamda nazariy tushunchalarni shaxmat o‘yinini o‘ynashga hamda ularni qiziqtirishga muaffaq bo‘lishdi. Chirchiq davlat pedagogika universitetida ham shaxmat sportiga qiziquvchi talabalar ko‘pligi tufayli universitetimizda “Shaxmat klubi” koordinatori tashabbusi bilan Amir Temur tavalludining 688-yilligi munosabati bilan talaba yoshlar o‘rtasida shaxmat musobaqasi ,9-may Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlab musobaqa turniri uyushtirildi. Talabalar ligasi musobaqasi tashkil etildi.

#### 1. Mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Shaxmat o‘yini o‘yinchilardan oldindan rejalashtirish, strategik qarorlar qabul qilish va raqibining harakatlarini oldindan ko‘ra bilishni talab qiladi. Bu jarayonlar orqali o‘yinchilar mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

#### 2. Muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish

Shaxmatda har bir yurish yangi muammolarni keltirib chiqaradi va o‘yinchi bu muammolarni hal qilish uchun samarali yechimlarni topishi kerak. Bu qobiliyat hayotning boshqa sohalarida ham muhim ahamiyatga ega.

#### 3. Diqqat va Sabr-Toqatni Kuchaytirish

Shaxmat o‘yini davomida o‘yinchilar ko‘pincha uzoq vaqt davomida diqqatini jamlashi kerak bo‘ladi. Bu diqqatni jamlash va sabr-toqat qobiliyatlarini oshiradi, bu esa o‘quv va mehnat faoliyatida ham foydali bo‘ladi.

#### 4. Yodda saqlash qobiliyatini rivojlantirish

Shaxmat o‘ynash davomida turli ochilishlar, taktikalalar va kombinatsiyalarni eslab qolish talab qilinadi. Bu jarayon yodda saqlash qobiliyatini yaxshilaydi va xotirani mustahkamlaydi.

#### 5. Yaratuvchanlikni Oshirish

Shaxmatda har bir o‘yin noyobdir va o‘yinchilar har safar yangi strategiyalar va taktikalarni qo‘llab, yaratuvchanliklarini namoyon etadilar. Bu esa ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

#### 6. Raqibni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish

Shaxmat o‘yinida raqibning harakatlarini tahlil qilish va uning niyatlarini oldindan bilish muhimdir. Bu qobiliyat hayotning boshqa sohalarida ham foydali bo‘lishi mumkin, masalan, ish muhitida yoki muzokaralarda.

#### 7. Qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish

Shaxmat o‘ynash jarayonida o‘yinchilar ko‘plab qarorlar qabul qilishadi, va bu qarorlar o‘yinning keyingi bosqichlariga ta’sir qiladi. Bu qobiliyat real hayotda tez va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

#### 8. Ijtimoiy Ko‘nikmalarni Rivojlantirish

Shaxmat klublari va turnirlari orqali o‘yinchilar yangi odamlar bilan tanishish va muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi va do‘stlik aloqalarini mustahkamlaydi.

#### 9. Stressni Kamaytirish

Shaxmat o‘ynash o‘yinchilarni real hayotdagi muammolardan chalg‘itadi va ularga dam olish imkonini beradi. Bu esa stressni kamaytiradi va ruhiy holatni yaxshilaydi.

#### 10. O‘zini-o‘zi Baho Berish Qobiliyatini Rivojlantirish

Shaxmat o‘ynash orqali o‘yinchilar o‘z muvaffaqiyatlarini va xatolarini tahlil qilishni o‘rganadilar. Bu o‘zini-o‘zi baholash qobiliyatini oshiradi va shaxsiy rivojlanishga yordam beradi.

-Shaxmat ochilishlari: Shaxmatda minglab turli ochilish variantlari mavjud, va ularning har biri o‘ziga xos strategiyaga ega.

-O‘yinlarning cheksizligi: Shaxmat o‘yining mumkin bo‘lgan kombinatsiyalari soni  $10^{123}$  ga teng bo‘lib, bu koinotdagi atomlar sonidan ham ko‘p.

- Durang holati: Shaxmat o‘yinida durang holatlari ham keng tarqalgan. Masalan, “pat” holati, 50 yurish qoidasi yoki uch marta takrorlangan pozitsiya natijasida durang e‘lon qilinishi mumkin.

-Shaxmatning xalqaro tili: Shaxmat algebraik yozuvi butun dunyo bo‘ylab qabul qilingan bo‘lib, u o‘yinning xalqaro tilini tashkil etadi.

Shaxmatning foydalari ko‘p qirrali bo‘lib, u mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, yodda saqlash



va qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shaxmat bolalar va kattalar uchun ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, stressni kamaytirish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Shaxmat nafaqat aqliy mashqlar va zavq beradigan o'yin, balki ko'p jihatdan foydali bo'lib, inson aqli va qobiliyatlarini rivojlantiradi. U mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, diqqat va sabr-toqat, yodda saqlash, yaratuvchanlik, tahlil qilish, qaror qabul qilish, ijtimoiy ko'nikmalar, stressni kamaytirish va o'zini-o'zi baholash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun, shaxmat o'ynash har bir inson uchun foydali bo'lishi mumkin. Shaxmat dunyo bo'ylab ommalashgan va ko'plab musobaqalar o'tkaziladi. Bu o'yin nafaqat intellektual mashq sifatida, balki o'yinchilar o'rtasidagi strategik jang sifatida ham ahamiyatlidir. Shaxmat o'ynash nafaqat mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi balkim intellektual foydalari va qiziqarli qoidalari tufayli butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar orasida ommalashgan va sevimli o'yin bo'lib qolmoqda.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PQ-150-son qarori.
3. "2026 yil O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
4. Kasparov, Garry. My Great Predecessors Series. Everyman Chess, 2003-2006.
5. Silman, Jeremy. Silman's Complete Endgame Course: From Beginner to Master. Siles Press, 2007.
6. Science and scientific research in the modern world Maktabgacha Yoshdagi Bolalarning Jismoniy Rivojlanishida Harakatli O'yinlarni Ahamiyati. M.S.Pardabayeva.
7. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларида рефлексив позицияни ривожлантиришнинг тузилиши, ўрни ва аҳамияти "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш" илмий методологик журнали 2023 йил 6/3 сон, декабр ойи Б 225-232.
8. Абдурасулов, Ж. (2024). Ҳарбий жамоанинг психологик аспекти. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(2), 59–65. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/28149>

#### РЕЗЮМЕ

Shaxmat intellektual mashq sifatida, hamda o'yinchilar o'rtasidagi strategik jang sifatida ham qiziqarli va foydalidir. Bu o'yin o'yinchilarga o'z aqliy va mantiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi va shaxmatni nafaqat bir o'yin, balki hayotiy dars sifatida ham qabul qilish mumkin.

#### РЕЗЮМЕ

Шахматы интересны и полезны и как интеллектуальное упражнение, и как стратегическая битва между игроками. Эта игра позволяет игрокам развивать свои умственные и логические способности, а шахматы – это не только игра, но и жизненный урок.

#### SUMMARY

Chess is interesting and useful both as an intellectual exercise and as a strategic battle between players. This game allows players to develop their mental and logical abilities and chess is not only a game but also a life lesson.